

## INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI YUTUQ VA MUOMMOLARI

Kamola Kadirova

*Samarqand viloyati Payariq tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 24-maktab  
ingliz tili fani o'qituvchisi*

Hilola Berdiyeva

*Samarqand viloyati Jomboy tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 18-maktab  
ingliz tili fani o'qituvchisi*

Davronova Umida Quchqorovna

*Samarqand viloyati Payariq tumani 26- maktab ingliz tili o'qituvchisi*

**Anatatsiya:** O'zbekiston Respublikasi prizidentining 2012 yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rghanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875 qaroriga muofiq hamda 2022-yil 11-maydag'i "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoniga asoslanib o'quvchilrni tilga bo'lgan ishtiyoqini oshirish.

**Kalit so'zlar:** Horijiy til, muloqot, nutq, fikr, gapirish, eshitish, yozish, o'qish, avdio, video, milliy va xalqaro.

Maktab o'quvchilarining xorijiy tillarni o'rghanishda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalariga asoslangan holda darslar olib borilishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda xorijiy tillarni egallah, avvalo, foydalanuvchi sifatida kelajakda maktab ta'limi tizimi bitiruvchilarining erkin muloqot qila olishiga imkon yaratdi. Ingliz tilida erkin muloqot qilish ham nutq faoliyat bilan chambarchas bog'langandir. O'quvchilarlarga tinglab tushunish malakasi qanchalik yaxshi egallanilgan bo'lsa, gapirish ham tezlik bilan rivojlanadi, aks holda teskarisi bo'ladi. Inglizcha ma'lumotni qabul qila olgan o'quvchi ingliz tilida uni mazmuniga moslashtirib, ma'lumot beradi. O'quvchi mazmunni qabul qila olmasa, tushuna olmasa- javob qaytarishi qiyin. Tinglovchi tinglab tushunishda ma'lumotni qabul qilib, idrok qilgachgina nutq sodir bo'ladi. Lekin gapirishda avval ichki nutq, so'ngra tashqi nutq hosil bo'ladi. Ichki nutqlarda taffakur xotira idrok muhim o'r'in tutadi.

Gapirish ko'nikmasida asosiy o'r'in tutuvchi nutq faoliyatining boshqa turlari ham mavjud. Bular o'qish, yozish, eshitish ko'nikmalaridir. Demak, gapirish ko'nikmasi boshqa ko'nikmalar bilan aloqadordir. Davr talabidan kelib chiqib shuni aytish lozimki, yaratilgan yangi ingliz tili darsliklari ham aynan shu ko'nikmalarga asoslangan tarzda tuzilgan. Ingliz tilida gapirishni o'rgatish eng muhim maqsadimiz bo'lishi kerak.

➤ Chet tilida gapirish ko'nikmasini o'quvchiga o'rgatish jarayonida birinchi navbatda qilinayotgan ish - bu o'quvchilar lug'at boyligini oshirishdan iborat. Misol uchun kuniga o'quvchilar ongiga 5tadan lug'at yodlashni shakllantirish lozim. Undan

keyingi bosqich o'rgangan so'zlarni bir-biriga qo'shib sodda gaplar tuzib gapishtishga o'rgatish.

➤ Rolli o'yinlar, mashqlar, rasmlar har xil dialoglar, she'r aytish, tez aytish, maqollar, tekst va hikoyalarni qisqa -qisqa so'zlab berish orqali ham gapishtish ko'nikmasini rivojlantirish mumkin.

➤ Gapishtish ko'nikmasi orqali o'quvchining nutqi o'sib boradi. O'ziga ishonchi oshadi. Yon atrofdagilardan chet tilida erkin muloqot qila olishi bilan ajrlib turadi.

➤ Hozirgi paytda chet tilida gapishtishni o'rgatishda multimedia darsliklar, lingafon kabinetlari jihozlari, har xil audio va video materiallari, gazeta va jurnallardan foydalanib gapishtish ko'nikmasini o'stirish oldingiga nisbatan samarali natijaga erishilayapti.

Chet tilida gapishtish ko'nikmasini o'quvchilarga o'rgatishda bir qancha muammolarga ham duch kelish mumkin.

➤ Birinchidan, o'quvchilarning chet tilida lug'at boyligining kamligi.

➤ Ikkinchidan, o'quvchilar chet tilida gapishtish jarayonida gap strukturasiga chalkashish holatlari ko'p uchraydi. Chunki, o'zbek tili gap qurilishi bilan chet (ingliz, nemis, fransuz)tillarining gap tuzilishi to'g'ri kelmaydi.

Masalan: ingliz tili va o'zbek tilini qiyoslaymiz

**Men matabga boraman** gapi ingliz tilida **I go to school** bo'ladi.

O'zbek tilida gapda ega, agar eganing aniqlovchisi bo'lsa egadan oldin keladi, undan keyin esa ikkinchi darajali bo'laklar va gap oxirida kesim keladi.

Ingliz tilida esa gapda so'z tartibi qat'iy. Gapda birinchi ega, kesim, va ikkinchi darajali bo'laklar keladi. Ingliz tilida predlogli fe'llar borligi uchun ular predlog bilan kelgan paytda tarjimasi boshqacha bo'ladi. O'zbek tilida bunaqa fe'llar yo'qligi uchun ham muammolarga duch kelinadi. Yana ingliz tilida talaffuzi bir xil ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar bor. Bunday so'zlar "homophones" deyiladi. Masalan: I and Eye, No and know, Hole va whole va shu kabilar ham o'quvchini chalg'itishi mumkin.

➤ O'quvchilar gapishtish ko'nikmasida duch keladigan muammolardan yana biri chet (nemis, ingliz, fransuz)tillarida gapishtishda o'ziga ishonmaslik, tortinish, iymanish kabi holatlarning ta'siri.

➤ O'quvchilarning yana bir muommolaridan biri lug'at boyligi kamligi va o'qituvchi bilan chet tili darsi paytida o'z tilida muloqat qilishidir.

Hozirgi paytda Kembrij Instituti bilan xamkorlikda chiqarilayotgan yangi darsliklarda esa bunday muomoga uchramaydi degan fikrdaman chunki xar bir mavzu o'z ichiga o'qish ,yozish,eshitish va gapishtish ko'nikmasini olgan va video ,avdio matnlar bilan boyitilgan.

Masalan o'quvchi eshitish,yozish, o'qish va gapirish ko'nikmalarini 1-sinfdan mukammal o'rgansa 11- sinfga kelib bemalol milliy va xalqaro til bilish darajasiga topshira oladi va bu muommo bo'lmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi prizidentining qaror va farmonlari
- 2.Juravlev A.N,Pavlyuk K.M —Til va kompyuterlar||1989 y
- 3.Khodjamkulov U, Botirova S, Shofkorov A, Abdumirova I —Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters(on the Example of the Education System of Uzbekistan) Journal of CriticalReviews,(2020)
4. Kholikova N (2020) —Poetic Features of Uzbek Poetry of National Awaking Period|| Theoretical and Applied Science